

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
*URGANCH INNOVATION UNIVERSITY***



**“IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR” FAKULTETI 21/02 TA’RIX TA’LIM  
YO’NALISHI TALABASI  
SULTANOVA FARRUXBEKNING  
“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN**

# **KURS ISHI**

**MAVZU: ALEKSANDR MAKEDONSKIY HARBIY YURISHLARI.  
ALEKSANDR VA SPITAMEN**

**Bajardi:** **SULTANOVA F.**

**Qabul qildi:** \_\_\_\_\_

**URGANCH 2025**

# **MAVZU: ALEKSANDR MAKEDONSKIY HARBIY YURISHLARI.**

## **ALEKSANDR VA SPITAMEN**

### **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I.BOB. ANTIK DAVR TARIXCHILARINING HIKOYALARI.....</b>	<b>5</b>
<b>1.1. Aleksandrning Baqtriya va Sug‘diyonaga yurishlari haqidagi antik davr tarixchilarining hikoyalari.....</b>	<b>5</b>
<b>1.2. Aleksandrning Baqtriya va Sug‘diyonaga yurishlari.....</b>	<b>8</b>
<b>II.BOB.ASOSIY QISM.....</b>	<b>15</b>
<b>2.1. Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida Xorazmshoh Farasman muloqoti.....</b>	<b>15</b>
<b>2.2. Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyon zab etgandan keyin Baqtriya va Sug‘diyonada tashkil topgan ellen davlatlar va ellistik madaniyat.....</b>	<b>21</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>31</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>33</b>

## KIRISH

**Kurs ishining dolzarbliji:** O‘tgan asrning 40-50 yillaridan boshlab mil.avv. IV – milodiy IV asrlar davri O‘rta Osiyo tarixini o‘rganish jarayonida «antik», «antik davr» jumlalari muomalaga kirgan edi. Ayrim tadqiqotchilar bu jumlalarni faqat Gretsiya va Rim tarixiga nisbatan ishlatish lozim degan g‘oyani ilgari surgan bo‘lishlariga qaramay, O‘rta Osiyo qadimgi davri bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi olimlar-arxeologlar, tarixchilar, antropologlar, san’atshunoslar kabilarning ko‘pchiligi bu atamani O‘rta Osiyo tarixiga nisbatan ham ishlatish mumkin degan nuqtai nazar tarafdoi bo‘ldilar.

Mil. avv. IV asrdan boshlab O‘rta Osyoning asosiy dehqonchilik vohalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning batamom yangi, faol yo‘liga o‘tdiki, bu rivojlanish milodiy III-IV asrlarda inqirozga uchray boshlaydi. Shaharsozlik madaniyati va sug‘orish tartibi, yozuv va pul muomalasi, moddiy va badiiy madaniyatga oid ko‘p sonli va turli-tuman yodgorliklar aynan mana shu rivojlanish jarayonidan dalolat beradi. Ta’kidlash joizki, bu davr - qadimgi dunyo ko‘pgina davlatlari jamiyatni taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va umummadaniy jabhalarida namoyon bo‘lgan yangi bosqichi bilan izohlanadi. Bu yangi bosqich turli davlatlarda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, bu davr butun Qadimgi dunyo davlatlarini qamrab olgan jahon tarixidagi hodisalarning ba’zi belgi va xususiyatlari jihatdan bir-biriga o‘xshashligi jarayonlaridan biri edi. «Antik» jumlesi yevropa tillarida “antiguite”, “antigutiy, antique” qabilida ishlatilib, «uzoq o‘tmish», «o‘tmish qadimiyat», «qadimgi» deb tarjima qilinishi mumkin.

**Kurs ishining maqsad va vazifalari:** Ulkan Ahamoniylar sultanati o‘zining g‘arbga qilgan ekspansiyasi natijasida yunon davlatlari bilan to‘qnashadi va buning natijasida mil.avv. V asrning birinchi choragida yunon-fors urushlari boshlanadi. Mil.avv. V asr davomida betinim urushlar, saroydagi fitnalar, bosib olingan xalqlarning ozodlik uchun kurashlari Ahamoniylar davlatini ancha zaiflashtirib qo‘ygan edi. Mil.avv. IV asrining o‘rtalaridan boshlab esa, Bolqon yarim orolidagi shahar-davlatlar kuchaya boshlaydi. Bu davrda Makedoniya podshosi Filipp II

Bolqon yarim orolida o‘z mavqeini mustahkamlab olib Ahamoniylarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi.

**Kurs ishining tuzilishi:** kirish, ikkita bob, har bobda ikkitadan rejalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar.

## **I.BOB. ANTIK DAVR TARIXCHILARINING HIKOYALARI**

### **1.1. Aleksandrning Baqtriya va Sug‘diyonaga yurishlari haqidagi antic davr tarixchilarining hikoyalari**

Filipp II o‘z davriga mos harbiy islohotlar o‘tkazib tartibli va yaxshi qurollangan qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Mil.avv. 336 yilda Ahamoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. Ammo, Filipp II ning o‘ldirilishi tufayli bu kurash to‘xtab qoldi. O‘sha yili taxtga Filipp II ning o‘g‘li 20 yoshli Aleksandr taxtga o‘tirdi. U Ahamoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qo‘shinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash tuzib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qo‘shinlar oldiga aniq vazifalar qo‘ydi. Shundan so`ng Aleksandr sharqqa qarab keng ko`lamli harbiy yurishlar uyushtirishga kirishadi. Ushbu kurs ishida Makedoniyalik Aleksandrning Sug‘diyona va Baqtriyaga harbiy yurishlari, bu haqida yozib qoldirilgan eng qadimgi yozma manbalar, Aleksandrga qarshi ozodlik kurashlari atroflicha yoritiladi.

**Farasman** - Xorazm podshosi (mil. avv. IV asr).

Mil. avv. 328-yil Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurish chog‘ida Farasman 1500 kishilik otliq qo‘shini bilan Aleksandrning qarorgohi joylashgan Baqtra shahriga kelgan va u bilan ittifoqchilik bitimi tuzgan. Farasman Aleksandrga Shimoliy Qora dengiz sohillariga, u yerdan Kolxidaga birgalikda harbiy yurish uyushtirishni taklif qilgan, biroq uning loyihasi qabul qilinmagan.

Tarix Fani kishilik jamiyatni bosib o‘tgan tarixiy yo‘lni qonuniyatli bir jarayon tarzida atroflicha o‘rganuvchi fan sifatida ijtimoiy fanlar tizimida muhim o‘rin tutadi va keng xalq ommasini, ayniqsa, yosh avlodni o‘z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi. Davlatimizning birinchi Prezidenti ta’biri bilan aytganda, «o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi». Aleksandrboshchiligidagi yunonlarning yurtimiz sarxadlarini bosib o‘tishi, ularga qarshi Spitamen rahbarligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olon ko‘pgina manba va adabiyotlarda o‘z aksini topgandir. O‘rta Osiyo, shuningdek O‘zbekistonning qadimgi va antik davrdagi tarixini o‘rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf

olimlarining asarlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ulardan ayrim va muhimlariga qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

Diodor (miloddan avvalgi 90-21-yillar). Yirik tarixchi olim; asli Sisiliyaga qarashli Argiriya shahridan. Diodor «Tarixiy kutubxona» nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiylar tarix yo‘nalishida yozilgan bu asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan to milodning I asr o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga oladi. Asarda Sharq xalqlari, shuningdek, O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning qadimiy xalqlari (skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar va b.q.), O‘rta Osiyo — Eron munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar bor.<sup>1</sup> Diodorning mazkur asari ko‘p jihatlari bilan ko‘chirma (kompilyativ) hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko‘p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog‘lanmay qolgan. Shunga qaramay, Diodorning «Tarixiy kutubxona»si dalillarga boy va ilmiy ahamiyatga egadir. «Tarixiy kutubxona» to‘la holda bizning zamonimizgacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi- qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1-5-kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari (miloddan avvalgi 500—449 yy.) dan to miloddan avvalgi 301 yilgacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga olgan 11-20- kitoblarigina saklangan, xolos. Asar 1774-1775 yillari I. Alekseyev tomonidan (olti qismda) va 1874—1875 yillari F. G. Mishchenko tarafidan ikki qism qilib nashr etilgan. Diador o‘zining asarida Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurishlari to`g‘risida ham batafsil ma’lumotlar berib o`tadi. U o‘z asarida Aleksandrga qarshi isyon ko`targan sug‘d ustiga katta qo`shin bilan bostirib borib 120 mingdan ortiq odamni o`ldirganligi haqida ma’lumot beradi.<sup>2</sup> Aleksandr shundan so`ng sug‘dliklar va baqtriyaliklarning qattiq jazolab, ularni keyinchalik ham itoatda tutuib turish uchun o`ziga qulay joylarda shaharlar barpo qildiradi. Diodor “Tarixiy kutubxona” asarida Aleksandrning Navtakaga qarshi yurushlari anqcha qiyin kechganligini ta’kidlaydi. U bu yerda mahalliy zododgon Oksiartning qizi Roksanani sevib qoladi

---

<sup>1</sup> Axmedov.B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T.: O‘qituvchi. 1991. B.-37.

<sup>2</sup> O`sha kitobda. B.-115.

va unga uylanadi. O`zining qo`l ostidagilarga ham mahalliy zodogon qizlariga uylanishlarini taklif ham qiladi.

Pompey Trog (milodgacha I-milodning I asrlari o`rtasida yashab o`tgan)-«Filipp tarixi» asari bilan mashhur bo`lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy ossuriya podsholari zamonidan to Rim imperatori Avgust (miloddan avvalgi 63 -milodning 14-yili) davrigacha dunyoda bo`lib o`tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e`tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (miloddan avvalgi 359-336-yy.) va Iskandar Zulkarnayn davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan. Mazkur asarning qimmati shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan; Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo`lishi va tarixini keng yoritib bergen. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Lekin, Pompey Trogning tarixiy jarayon va uning taraqqiyotiga qrashlari idealistikdir, chunki u tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan. «Filipp tarixi»da skiflar, Baktriya, Iskandar Zulkarnayn davrida Baqtriya va Sug`dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulkarnayn vafotidan keyin yuz bergen voqyealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, Parfiya podsholigining tashkil topishi, parfiyaliklarning urf-odatlari; Baktriya, Parfiya va Midianing o`zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Kvint Kursiy Ruf (milodning I asri) — mashhur Rim tarixchisi; Iskandar Zulqarnaynning Eron, O`rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat «Buyuk Iskandarning tarixi» nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolemey Lag va Iskandar Zulqarnaynning safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan. Kvint Kursiy Rufning mazkur asarida O`rta Osiyoning Aleksandrqo`shinlari tomonidan istilo qilinishi, O`rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo`zg`olon keng yoritib berilgan.

Rim tarixchisi Plutarx ham Aleksandr haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Plutarxning yozishicha: «Aleksandr Sharq xalqlari vakillarini yunon

madaniyatidan bahramand qilishga...» uringan ekan. Hatto O‘rta Osiyoda bo‘lganida «...yerli aristokratlarning 30 ming o‘g‘il farzandini tanlab olib, ularga yunon tilini o‘rgatib, grek madaniyati ilmidan ta’lim berishni» buyurgan ekan.<sup>3</sup> Albatta yunonistonlik muarixlarning bu tutgan yo‘llarini tushunmoq kerak. Ular nima bo‘lganda ham O‘rta Osiyoni zabit etgan, uni asoratga solgan fotih makedoniaylik Aleksandr avlodidirlar. Zero, ular o‘z davlatlarining, o‘z vatandoshlari bosqinchiligi Aleksandrning qonli yurishlarini oqlashga, uni ijobjiy tomondan ko‘rsatishga harakat qilishlari tabiiy ekanligini fahm etsa bo‘ladi.

Yustin «Pompey Trog epitomi» asarida Aleksandr Baqtriya va Sug‘diyonada 7 shahar qurdirganligini yozadi. Shulardan biri Sirdaryo sohilida 17 kunda qurib bitkazilgan qal‘a «Aleksandriya Esxata», ya’ni olisdag‘i Aleksandriya edi. Bu shahar Xo‘jand bilan Bekobod oralig‘i (taxminan Farhod GESi)da joylashgan edi. Bu qal‘a shaharlarni Aleksandr nega qurdi? U bu shaharlarda grekmakedon qo‘sishinlarini joylashtirib, kelgusi joylarni zabit etishda bu shaharlardan plastdarm sifatida foydalangan edi. Shu sababdan Aleksandr «Aleksandriya Esxata»ni tezda barpo etib, bu yerdan saklar ustiga yurish boshlagan. Bundan tashqari Aleksandrning O‘rta Osiyoda olib borgan yaratuvchilik faoliyatiga qaraganda, uning vayron etuvchilik, buzg‘unchilik faoliyati o‘n chandon ortiqroq va ko‘proq bo‘lgan behisob shahar va qishloqlarni vayron etgan.<sup>4</sup>

---

<sup>3</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farb. – Т., «Фан» нашириёти. 1992 йил. Б.-94.

<sup>4</sup> Shamsutdinov.R., Karimov.Sh. Vatan tarixi. T.: 2010. B.-59.

## **1.2. Aleksandrning Baqtriya va Sug‘diyonaga yurishlari**

Eramizdan avvalgi IV asrda, ya’ni Aleksandrgacha bo`lgan Makedoniya Bolqon yarim orolida joylashgan bo`lib, patriarxal mamlakat edi. Makedoniyalik shohlar o`zlarining kelib chiqishlarini Zevsning o`gli Heraklga olib borib bog‘laganlar. Shoh Filipp (er. av. 382-336 yillar) davrida Makedoniyada quldorlikka asoslangan davlat tuzumi shakllanib bitadi. Filipp II uzoqni ko`zlagan, tadbirkor davlat arbobi bo`lib, yunon madaniyatiga chuqur hurmat bilan qarar va o`zi ham u madaniyatdan bahramand edi. Filipp II juda ko`p hududlarni zabit etdi. Ammo erishilgan zafarlar bilan qanoatlanmay, Eronni zabit etishni rejalashtiradi. Lekin niyatiga yetolmay, eramizdan avvalgi 336 yili saroy bazmi vaqtida o`ldiriladi. Filipp vafot etganida Epir shohining qizi Olimpiadadan tug‘ilgan o`g‘li Aleksandr 19 yoshda edi. Olimpiada o`ta shuhatparast, hammaga o`z amrini o`tkazishni yaxshi ko`rgan, qattiqo`l ayol edi. U o`z raqiblarini, hatto hali tug‘ilmagan, lekin taxtga merosxo`r bo`lishi mumkin bo`lganlarning hammasini sovuqonlik bilan yo`q qilib tashlaydi. Aleksandrning tarbiyasini Olimpiada o`z qarindoshi Leonidga topshiradi, u o`z navbatida Lisimax ismli grekni yollaydi. Leonid Aleksandrni qattiqo`llik bilan, qiyinchiliklarga bardosh beruvchi etib tarbiyalaydi. Filipp o`g‘li tarbiyasiga jiddiy e`tibor berib, shahzoda 13 yoshida ekanida buyuk olim, faylasuf Aristotelni taklif etadi. Olim shahzodaga shoh saroyida 3-4 yil ta’lim beradi.

Shunday qilib, eramizdan avvalgi 330 yili qudratli Eron sultanati tor-mor etiladi. Endilikda Eron shohiga qaram bo`lgan oxirgi viloyatlar, greklar, ayniqsa, makedonlar uchun juda uzoq va noma'lum bo`lgan sharqi-shimoliy yerlar qolgan edi. Greklarning Markaziy Osiyo haqidagi tushunchasi o`ta afsonaviy bo`lib, ularning tushunchasi bo`yicha Kaspiy dengizi Okeanga qo`shiladi, Hindiqush tog'lari Kavkaz tog'larining davomi, bu yerlarda afsonaviy xalqlar yashaydi va hokazo. Aleksandrning Baqtriya, Sug'diyona, umuman Markaziy Osiyoga yurishining ham g'oyaviy, ham siyosiy sabablari bor edi. Avvalo shimoli-sharqiy viloyatlar eroniylarning rasmiy dini bo`lmish zardushtiylikning vatani, beshigi edi, eroniylar tushunchasicha xalq qudrati, xalq ruhining siri o'sha qadimiy vatanda edi. Eron zabit etilgani bilan mamlakat orti, xalq orti hali mustahkamdek, xalq ruhi tetikdek tuyolar edi. Demak, Baqtriya va Sug'diyonani zabit etmasdan turib eroniylar qudratini yengib bo`lmas, kelajakdagi tinchlikka ham ishonib bo`lmas edi. Ammo Aleksandr urushlari tarixida eng mushkuli ana shu viloyatlarda bo`ldi.

Bosqinchi makedoniyaliklarga qarshi zarba avvalo Oriyonada (hozirgi Hirot viloyati) berildi. Satrap Satibarzan avvaliga Aleksandrga taslim bo`lib, o`z mavqeini saqlab qoladi, lekin shoh Baktriyaga qarab yo`l olgach, ketidan qo`zgolon ko`taradi. Grek-makedonlar qo`zgoltonni shafqaqizlik bilan bir oyda bostiradilar. Satibarzan esa suvoriylar otryadi bilan Baktriyaga yo`l oladi, ammo yo`lda dushmanga duch kelib, jangda halok bo`ladi. Baqtriya satrapi Bess Aleksandr yaqinlashayotganidan xabar topgach, o`z yaqinlari bilan kelishgan holda xayrixoh kishilar va xalqqa yurtni bosqinchilardan himoya etaman deb va'da qilib o`zini shoh deb e`lon qiladi, lashkar to`playdi va qurol-aslaha jamg'aradi. Ammo Bess bosqinchilarga qarshilik ko`rsatish o`rniga lashkarlari va sheriklari bilan Sug'diyonaga qochadi. Aleksandr Baqtriyani ham jangsiz egallaydi.

Aleksandr 330-yili bahorda janubiy Baqtriyani ishg'ol etadi. Bess ochiq jangga jur`at etolmasa-da, uning harakatlari yovni holdan toydiradi. U himoyaga astoydil tayyorgarlik ko`radi. Aleksandr esa Bess ketidan quvib borib Amudaryodan o'tib, Markaziy Osiyo yerlariga bostirib kiradi, maqsad go`yoki Doro III uchun Bessdan

o`ch olish edi. Aleksandr Nautakada Bessni qo`lga tushiradi va Arrian bergen ma'lumotlarga qaraganda u Ptolomeyga «Bessni yalang‘och qilib, ko‘chaning o‘ng tomoniga bog‘lab qo‘yishni buyuradi. Sharmandalarcha yap-yalang‘och turgan Bessning yonidan Aleksandrning butun qo‘sirlari saf tortib o‘tadi. Uni sharmandali holda yalang‘och qilib, Eronga olib keladida o‘limga mahkum etadi. O‘limi oldidan qo‘li, burni va oyoqlarini kesib, qiynaydi».<sup>5</sup> Shimoli-sharqiy viloyatlar -Girkaniya, Ariya, Parfiya, Drangiana, Araxoziya, Baqtriya va Sug‘diyonani bo`ysundirish uchun eng ko`p vaqt-uch yil ketdi. Ayniqsa, Baqtriya va Sug‘diyonani zabit etish katta qiyinchiliklar tug‘dirdi. Sharqning siyosiy va madaniy markazlari bo`lmish Bobil, Misr, Ekbatan kabilar jahongirga jangsiz taslim bo`lsalarda Markaziy Osiyoning erksevar xalqlari mustaqillik, ozodlik uchun bosqinchilarga qarshi umuxalq kurashiga otlandilar. Ahamoniylar armiyasi bilan Aleksandr uch marta yuzma-yuz jang qilib, osonlik bilan g‘olib chiqdi, lekin Markaziy Osiyodagi umumxalq urushida yengish oson bo`lmadi, ayniqsa Sug‘diyonada bosqinchilar katta talofat ko`rdilar va juda qiynaldilar. Bu qiyinchiliklar haqida Elian (II — III asr) quyidagilarni yozgan: «Bessning ketidan quvgan Aleksandr lashkarlari katta mashaqqatlarga yo`liqdilar, oziq- ovqat yetishmaydi, hammalari, hatto shoh ham yuk hayvonlari go`shti bilan tamaddi qiladi. O`tin ham yo`k bo`lgani uchun go`shtni xomligicha yeydilar. Baktrianada bir qishloqqa yo`liqadilar, lekin u uylarni qor bosgan edi, faqat qorni tozalabgina uylarga kira oladilar». <sup>6</sup>

Antik adiblari O`rta Osiyodagi janglar haqida qisqa ma'lumot bergenlar, batafsil yozilgan asarlari (masalan, Diodorning “Tarixiy kutubxona” asarining xuddi ana shu voqealar tasvirlangan XVII kitobidan qisqa parchalargina saqlanib qolgan) yuqolib ketgan. Saqlanib qolgan qisqa ma'lumotlarda ham chuqur ma’no bor: “Lashkarlar avval hech ko`rmagan azoblarni, ochlik, sovuq, charchash, umidsizlik, tushkunlikni boshdan kechiradilar. Ko`plari sovuqdan o`ladilar. Horginlikdan qorga yotib oladilar. Yoki lashkarlarning yoz issig‘ida qiynalganini quyidagicha tasvirlaydi:

<sup>5</sup> Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. – Т.: Иқтисод-молия. 2006. Б.-83.

<sup>6</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farб. – Т., «Фан» нацириёти. 1992 йил. Б.-89.

“Aleksandr... Sug‘diyona dashtliklarida kechalari yo`l bosdi. Suv yetishmas edi, tashnalik suvsagandan emas, noumidlikdan, o`ta mushkul ahvoldan ham yuzaga kelardi. Yozgi quyosh issig‘i dashtni alangalatadi: bir o`t tushgandan keyin cho`l-u biyobon gulkanga aylanadi, issig‘idan og‘iz va tananing ichi qurib qolgandek tuyiladi. Jangchilar ruhan tushkunlikka tushadilar, keyin xoldan toyadilar. Hatto bir joyda turish ham qiyin edi. Shunchalik falokatdan shoh tashvishga tushadi”.<sup>7</sup>

Eroniylar asoratidan ozod bo`lishni orzu qilgan Markaziy Osiyo xalqlari yangi bosqinchilarga qarshi keskin kurash olib borganlar. Bess xalqning ishonchini oqlamagach, uni Aleksandrga tutib bergenlar, keyin butun xalq baktriyalik va sug‘dilar Spitamen, Datafern, Katanlar rahbarligida makedoniyalik bosqinchilarga qarshi kurashga otlanganlar. Ayniqsa, Marakandani (hozirgi Samarkand, sug‘di tilida Smarqanqa, Maxmud Qoshg‘ariyda Samizkand, ya’ni katta shahar.<sup>8</sup> Bu shahar turkiy xalqlar tomonidan bino qilinganiga shu nomning o`zi dalildir” ) ishgol qilishga ikki yil vaqt ketgan. Dastavval shahar sulh yo`li bilan ishg‘ol etilgan, lekin ko`p vaqt o`tmay, Spitamen raxbarligida shaharda qo`zg‘olon ko`tarilib, makedoniyalik lashkarlar halok etilib, shahar ozod etilgan. 328 yili Aleksandr ikkinchi marta o`ta shafqatizlik bilan shaharni ishgol etgan, Spitamen esa shaharni tashlab chiqib ketgan. Shoh, shahar atrofidagi aholi yashovchi joylar, qishloqlarga o`t qo`yib, vayron qilgan, aftidan ular ham shaxar himoyasida ishtirok etgan bo`lsalar kerak. Bu voqealardan keyin Spitamen raxbarligida sug‘dlar va ularga xayrixohlik bildirgan Baqtriyaliklar ommaviy qo`zg‘olon ko`targanlar. Galabani osongina qo`lga kiritishga o`rganib qolgan makedoniyaliklar uchun erksevar Sug‘diyona xalqlarining qarshilik ko`rsatishi, katta talafotlar ko`rilganligi, ot-ulov, oziq-ovqat yetishmasligi bosqinchilarda bir qancha qiyinchiliklar tug‘dirgan. Aleksandr dastavval asosiy kuchni qayoqqa tashlashni bilmay to`lqinlanayotgan viloyatda o`zini u yoq, bu yoqa urib, asablari o`ynab, qanday tadbir ko`rishni bilmay qiynaladi.

<sup>7</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Гарб. – Т., «Фан» нашириёти. 1992 йил. Б.-89-90.

<sup>8</sup> Руденко С. И. Древнейшее в мире художественные ковры и ткани. М.: 1968. С.-149.

Rim olimi Kursiy Rufning ma'lumot berishicha, Iskandar armiyasi Marokandani uncha qiyalmasdan va kam talofat bilan ishg'ol etgan va «shaharda o'zlarining garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», so'ngra esa shimoli-sharqqa qarab harakatlanganlar. O'shanda Aleksandr So'g'diyonada yana yettita shaharni bosib oldi. Shundan keyin u *Tanais* daryosi boylanga qarab qo shin tortdi. Tanaisni mahalliy xalq *Yaksart* deb atardi. Uning boshlanishi Tyanshan tog'larida bo'lib, Gurgon dengiziga kelib quyilar edi. Tanais bo'yalaridagi mahalliy xalq oziq-ovqat va yem-xashak qidirib yurgan makedoniyaliklarni tutib o'ldirdilar. Shu yerda Aleksandr huzuriga saklarning elchilari kelishdi. Aleksandr ham ular bilan sulk tuzish uchun o'z elchilarini yuborgan edi. Aslida esa Aleksandrning elchilari skiflar mamlakatining umumiyligi ahvoli, skiflarning turmush tarzi, din-e'tiqodi, fe'l-atvori, askarlarining umumiyligi soni va qanday qurollanganliklarini bilib kelishi kerak edi. Aleksandr o'sha Tanais bo'yida Aleksandriya Esxata (Uzoqdagi Iskandariya) degan katta bir shahar qurdirdi. Shahar hozirgi Tojikistonning Xo'jand shahri yaqinida joylashgandi. Bu shahar Iskandar uchun skiflarga qarshi urush olib borishda tayanch bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Lekin Iskandarning skiflar ustiga qilmoqchi bo'lgan yurishi amalga oshmay qoldi. So'g'diyonada katta qo'zg'olon ko'tarilganligi va ularga ergashib baqtriyaliklar ham qo'zg'olon ko'targanliklari haqida bir-biridan tashvishli xabarlar kela boshladi. Shu payt Aleksandrendi Aleksandriya Esxataga kelib tushgandi. Shahar juda katta bo'lib, 60 stadiy uzunlikdagi devor bilan o'ralgandi. Skiflar tez-tez katta shaharning ro'parasiga kelib, uni qattiq o'qqa tutar edilar. Shu payt Baqtriyaham Iskandar Zulqarnaynning tasarrufidan chiqib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritib oldi. Iskandar esa ikki o't orasida: bir tomonidan mustaqilligini qo'lga kiritib olgan Baqtriyah bilan qo'zg'olon ko'targan So'g'di-yona, ikkinchi tarafdan yunon askarlariga tez-tez hujum qilib, ularga katta talafotlar yetkazib turgan saklar orasida qolgandi. Yarador bo'lib qolgan, sogiig'i borgan sari yomonlashib borayotgan Aleksandr buning oqibatidan qo'rqardi. Ushbu bosqinchilarga qarshi iste'dodli

harbiy rahbar, so‘g‘dlik Spitamen boshchiligidagi baqt-riyaliklar, sak va massagetlar qo‘silib qo‘zg‘olon ko‘tardilar.

Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari natijasida qanchadan-qancha shaharlar vayron etildi, yuz minglab yerli xalq qulga aylantirildi, dunyo bozorlarida sotildi, ko`pchilik xalq qirib tashlandi. Behisob moddiy boyliklar talon-toroj etildi va yo`q qilib tashlandi. Bularning hammasi mintaqaga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta zarba berdi.

## **II.BOB.ASOSIY QISM**

### **2.1. Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida Xorazmshoh Farasman muloqoti**

Aleksandr uchun Spitamen eng asosiy va dahshatli raqibga aylandi. Tarixchi olima Fozila Sulaymonova sug‘diylar qahramoni Spitamennenning nomi yunonchadir deb hisoblaydi. Uning fikricha, Spitamen sug‘diy tilida taxminan Spenta Manyo (harakatchan yoki muqaddas ma’nosini bildiradi) bo‘lsa kerak, deydi. Spitamennenning tarjimayi holi va shaxsi to‘grisida hech qanday ma’lumotlar saqlanmagan. Uning qizi Apamani Aleksandr o‘z qo‘mondonlaridan biri bo‘lgan Salavkaga xotinlikka olib beradi. Buni yunon muarrixlari ham tasdiqlaydilar. Jumladan, Plutark Salavkaning xotini «eroniy» deydi. Bu fikrni Strabon ham tasdiqlaydi. Arrian esa uni «baqtriyalik» deb hisoblaydi. Xullas, qayerlik bo‘lganda ham Spitamen O‘rta Osiyoning yerli mahalliy xalq farzandidir. Salavkaiylar avlodidan bo‘lgan shohlar ota tomonidan yunon va ona tomonidan Spitamen avlodidan bo‘lganlar. Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen jismonan baquvvat, jasur, mard va tadbirkor bir kimsa suratida tasvirlanadi. Dastlabki paytda «Aleksandr Spitamenga katta-katta va’dalar beradi, hatto Sug‘diyona hokimligini in’om etmoqchi bo‘ladi. Spitamen esa vatanfurushlik qilgandan ko‘ra o‘limni afzal biladi».<sup>9</sup> Spitamen dastlab masalaning mohiyatiga chuqur baho bera olmasdan, Aleksandrni Turon xalqini ahamoniylar zulmidan ozod qiluvchi xaloskor deb bilgan. Aleksandrning amalda xalqqa o‘tkazgan jabr-zulmi, qilgan yovuzliklari va shafqatsizliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgach uning fikri keskin o‘zgaradi. Aleksandr Doroning yuz minglab muntazam qo‘sishinlariga qarshi kurashdan ko‘ra Spitamen boshchiligidida bosh ko‘targan xalq qasoskorlariga qarshi kurashish qiyin ekanligini tushunib yetadi. Chunki, qo‘lga tushmas Spitamen dushman kutmaganda hali u yerda, hali bu yerda paydo bo‘lar va makedoniyaliklarga ofat va talafot keltirardi. Jumladan, Kvint Kursiy Ruf Spitamen faoliyati bilan bog‘liq quyidagi misolni keltiradi: «Jangchilarining chaqqonligi

---

<sup>9</sup> Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. – Т.: Иқтисод-молия. 2006. Б.-47.

otlarning tezligiga mos edi. Spitamen lashkarlariga o‘rmonni qurshab olishni buyurdi va bir vaqtida ularni dushmanning yon tomoniga front orqasidan olib chiqdi. Menedem har tomonlama qurshovda qoldi. Lekin uzoq vaqt qarshilik ko‘rsatdi. Bu jangda 2000 piyoda va 300 suvoriylar halok bo‘ldilar. Bu talafotni Aleksandr ustalik bilan hammadan yashirdi». Yoki makedoniyaliklarning Zarafshon daryosidan o‘tish voqeasi ham bu borada jonli misoldir». Arrian bunday ma’lumot beradi: «Makedoniyaliklar daryoda mutlaq, tartibsizlik bilan o‘ta boshladilar. Varvarlar ular qo‘ygan xatolikni sezib har tomondan o‘rab oladilar... ularni qayta daryoga siqib tashlaydilar yoki o‘q-yoy bilan otadilar... chorasz qolgan makedoniyaliklar daryo o‘rtasidagi orolga chiqib oladilar. Skiflar va Spitamen lashkarlari ularni qurshab kamondan otib tashlaydilar, bir qismini asir oladilar, ammo keyincha ularni ham otib tashlaydilar».<sup>10</sup> Darhaqiqat, Aleksandr qo‘shinlari juda katta talafot ko‘rib, Sug‘diyona va Baqtriyadagi qo‘zg‘oltonni bostira olmagan. Unga o‘ziga qarashli viloyatlardan 19 ming yollanma qo‘shin yordamga yetib kelgach, bu isyon bostirilgan. Yunon muarixlarining asarlarida Spitamen bilan birgalikda Aleksandrga qarshi jang qilgan skiflar, baqtriyaliklar, massagetlarning jasorati va ularning ajoyib urfodatlari va madaniyatları haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Kvint Kursiy Rufning ta’kidlashicha, skiflar boshqa «varvar» xalqlardan farq qiladilar, «ularning fikr ifodalanishlari qo‘pol emas, madaniyati ham durust edi». Yana u davom etib yozadi: «Aytishlaricha, ularning orasida donishmandlari ham bor ekan».<sup>11</sup> Kvint Kursiy Rufning qayd qilishicha «skiflarning, hatto nutqi ham jozibador edi. O‘zining go‘zal nutqiga, madaniyatiga ega bo‘lgan skiflarning o‘sha davrlarda o‘ziga xos adabiyoti ham bo‘lgan». Kvint Kursiy Ruf «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida skiflarning jasurligi va mardligini ta’riflaydi. Uning yozishicha Aleksandr skiflarning katta bir guruhini asir oladi. «Jismoniy jihatdan baquvvat bo‘lgan skiflardan 30 kishini o‘limga mahkum etganda, ular o‘limdan ham qo‘rqmasdan, xalq qo‘shiqlarini baralla aytib, xursand

<sup>10</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farb. – Т., «Фан» нашириёти. 1992 йил. Б.-91.

<sup>11</sup> Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. – Т.: Иқтисод-молия. 2006. Б.-50-51.

bo‘lib borardi», deydi u. Skiflarning mardligiga qoyil qolgan Aleksandr asirlarni o‘limdan saqlab qolib, hibsdan ozod qiladi. Asarda massagetlarning jasoratlari haqida ham yorqin satrlar bor. «Massagetlar 800 nafar otliq jangchilarini qishloq yaqinidagi o‘rmonga yashirib qo‘yadi. Bir necha kishi poda haydab o‘rmonga qarab bemalol ketaveradi. Tayyor o‘ljani qo‘ldan chiqarmaslik uchun Attin o‘zining 300 otliq, jangchisi bilan hech shubda qilmasdan o‘rmonga kirib boradi. Massagetlar Attin qo‘shiniga qo‘qqisdan hujum qilib, ularning hammasini qirib tashlaydi». Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen fojiasiga sabab bo‘lgan xoinlar, qo‘rroq va sotqinlarga nafrat o‘tini sochuvchi yorqin satrlar ham anchagina. Ana shunday sotqinlardan biri Spitamenning xotinidir. Horib-charchagan Spitamen shirin taom va sharob ta’sirida qattiq uyquda yotardi. «Xotini pinxona kelib, qilichini sug‘urib oldida, Spitamenning boshini kesib tashladi. Qonga belangan reining kallasini bu jinoyatdan ogoh bo‘lgan qulga keltirib beradi. So‘ngra makedon qo‘shinlari joylashgan lagerga kelib, Aleksandrga xabar qilishni, muhim xabar olib kelganligini, bu xabarni shohga shaxsan o‘zi yetkazishi lozimligini aytadi. Aleksandr bu mudhish voqeadan ogoh bo‘lib g‘azablanadi. Aleksandr Spitamen bilan yakkama-yakka jangda olishish niyatida edi. U jallod xotinni lagerdan tashqariga haydab yuborishni, unga sherik bo‘lgan qulni yerli xalqning eng og‘ir jazosiga mahkum etishni buyuradi. Spitamenning xotini erining boshi evaziga Aleksandrdan katta mukofotga umidvor edi. U xor-zor bo‘lib o‘ladi. «O‘z eriga xiyonat qilgan xotin menga do‘sit bo‘larmidi», deydi Aleksandr». Spitamenning o‘limi haqida Arrian boshqacharoq rivoyatni keltiradi. Uning yozishicha «Skif-massagetlar yengilganlaridan so‘ng o‘zları bilan birga ittifoq bo‘lib dushmanga qarshi jang qilgan baqtriyaliklar va sug‘dlar yuklarini talaydilar vaqochadilar. Spitamen ham ular bilan birga ketadi. Ularga «Aleksandr dashtga hujum boshlar emish», degan xabar yetgach, Spitamenning boshini tanasidan judo qilib shohga yuboradilar va shu yo‘sinda Aleksandrning hujumini oldini olmoqchi bo‘ladilar». Tarixiy yozma manbalarda katta sovg‘a-salomlar bilan do‘silik aloqalarini o‘rnatish maqsadida Xorazm shohi 1500 otliq suvoriyalar bilan Aleksandr oldiga bosh egib kelganligi yoziladi.

Jumladan, «Aleksandrnomá»da Xorazmshoh «Feruzbax va Jamshidshoh o‘z askarlari bilan yordamga» kelgani ta’kidlanadi. Arrian esa «Xorazmliklar shohi Farasman Aleksandrga bosh egib keldi», deydi. Strabon bo‘lsa «...massaget va saklarga attasiy va xorazmiylar ham kiradilar, Spitamen u yerga qochib ketgan... Aleksandrga bo‘ysunmagan», deydi. F.Sulaymonovning «Sharq va G‘arb» asarida esa «Xorazmiylar shohi Farasman ham yurishda ittifoq etish uchun Aleksandrga suvoriylar otryadini olib keldi», deyiladi. Aslida Xorazm hukmdori o‘zining donishmandligi va uzoqni ko‘ra bilganligi tufayli mamlakat mustaqilligini saqlab qola oldi. U vaziyatni to‘g‘ri baholay oldi va Samarqandga — Aleksandr huzuriga keldi. Farasman mazkur uchrashuv chog‘ida harbiy ittifoq tuzib, Qora dengiz tomon yurishni taklif etadi. Sug‘dlik Spitamen qo‘zg‘olonini bostirish bilan band Aleksandr «Farasmanga tashakkur aytib, u bilan do‘stlik ittifoqini tuzadi». Shu bilan birga hozir Pontiga (ya’ni qora dengizga) yurish vaqtি emas», deb aytadi. Aleksandr ishonchini oqlagan Farasman yunonliklarning keyingi harbiy rejasi hind zaminiga yurish ekanligini ham bilib oladi. Uzoqni ko‘ra bilgan Farasman shu tariqa mintaqadagi yagona barqaror yer — Xorazm daxlsizligini saqlab qoladi, hamda Aleksandrning kelgusi rejalaridan voqif bo‘lib oladi. Farasmanning Aleksandr bilan ittifoqi strategiya nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan siyosiy qadam ekanligini shundan ham aniq ko‘rish mumkinki, bir yil o‘tar o‘tmas miloddan avvalgi 328-yili u yunonliklar tazyiqidan qochishga majbur bo‘lgan Spitamenga Xorazmdan boshpana beradi (Strabon. miloddan avvalgi 1-asr — milodiy 1-asr). Fikrimizcha, Xorazm hukmdorining Aleksandrning ashaddiy dushmani Spitamenni qabul qilishi nafaqat uning vatandoshlik hissidan, balki Aleksandrning ahvoldidan boxabarligi hamda ma’lum ma’noda, kezi kelganda o‘z imkoniyatlariga ishonganligidan hamdir. Zero, Xorazm bu zamonda janubi-sharqda o‘z ta’sirini yo‘qotgan bo‘lsa-da shimoliy g‘arbda qora dengiz — Azov bo‘ylarigacha bo‘lgan yerlardagi mavqeyi saqlanib qolgandi. Xullas, Spitamen boshchiligidagi xalq qasoskorlari harakati o‘lka xalqlari orasida mustahkam birlik hamkorlik va ittifoqning bo‘lmaganligi, dushman tomoniga o‘tgan Ammo Spitamenni bartaraf etish, Baqtriya va Sug‘diyonani

egallash Aleksandr uchun oson kechmadi. Makedon qo'shinlarining yengilmasligi haqidagi afsonalar O'rta Osiyoda chippakka chiqdi. Aleksandr askarlari Baqtriya, sug'diyonalik va skiflardan bir necha marta yengildilar, juda ko'plab makedon qo'shinlari janglar davomida qirib tashlandi. Birgina Politimet (Zarafshon) daryosi bo'yidagi janglarda makedon qo'shinlari ikki marta talafot ko'rdi. Aleksandrning shaxsiy hayoti ham Sug'diyonada juda og'ir kechdi. Ayniqsa, Kiropil shahrini egallash paytida boshi va bo'ynidan yaralanib, ko'p azob tortdi.

Aleksandr miloddan avvalgi 323-yilda o'z davlatining yangi poytaxti Mesopotamiyaning Bobil shahrida vafot etadi. Shunday qilib, makedoniyalik makedoniaylik Aleksandr olib borgan bosqinchilik va talonchilik urushlari oqibatida O'rta Osiyoda Ahamoniylar zulmi yunon-makedon istilochilari zulmi bilan almashdi. Bu zulmdan qutulish uchun Sug'diyona xalqlariga 150-yil, Baqtriya xalqlariga esa 180 yil kerak bo'ldi. Aleksandrni O'rta Osiyo xalqlarining do'sti, adolatparvar, ilmma'rifat va madaniyatni yoyuvchi shahonshoh sifatida ta'riflaydilar. Plutarxning yozishicha: «Aleksandr Sharq xalqlari vakillarini yunon madaniyatidan bahramand qilishga...» uringan ekan. Hatto O'rta Osiyoda bo'lganida «...yerli aristokratlarning 30 ming o'g'il farzandini tanlab olib, ularga yunon tilini o'rgatib, grek madaniyati ilmidan ta'lim berishni» buyurgan ekan. Albatta yunonistonlik muarrixlarning bu tutgan yo'llarini tushunmoq kerak. Ular nima bo'lganda ham O'rta Osiyoni zabt etgan, uni asoratga solgan fotih makedoniaylik Aleksandr avlodidirlar. Zero, ular o'z davlatlarining, o'z vatandoshlari bosqinchi Aleksandrning qonli yurishlarini oqlashga, uni ijobiy tomonidan ko'rsatishga harakat qilishlari tabiiy ekanligini fahm etsa bo'ladi. To'g'ri, Aleksandr O'rta Osiyo hududlarida ham shaharlar barpo etgan. Jumladan, Yustin «Pompey Trog epitomi» asarida Aleksandr Baqtriya va Sug'diyonada 7 shahar qudirganligini yozadi. Shulardan biri Sirdaryo sohilida 17 kunda qurib bitkazilgan qal'a «Aleksandriya Esxata», ya'ni olisdag'i Aleksandriya edi. Bu shahar Xo'jand bilan Bekobod oralig'i (taxminan Farhod GESi)da joylashgan edi. Bu qal'a shaharlarni Aleksandr nega qurdi? U bu shaharlarda grekmakedon qo'shinlarini joylashtirib, kelgusi joylarni

zabt etishda bu shaharlardan plastdarm sifatida foydalangan edi. Shu sababdan Aleksandr «Aleksandriya Esxata»ni tezda barpo etib, bu yerdan saklar ustiga yurish boshlagan. Bundan tashqari Aleksandrning O‘rta Osiyoda olib borgan yaratuvchilik faoliyatiga qaraganda, uning vayron etuvchilik, buzg‘unchilik faoliyati o‘n chandon ortiqroq va ko‘proq bo‘lgan, behisob shahar va qishloqlarni vayron etgan.

## **2.2. Makedoniyalik Aleksandrning O`rta Osiyon zab etgandan keyin Baqtriya av Sug`diyonada tashkil topgan ellin davlatlar va ellistik madaniyat**

Aleksandr Makedonskiyning Sharq yurishlari o‘n yil (334-324) davom etdi. Bu harbiy yurish oqibatida A.Makedonskiy Bolqon yarim orolidan to Sharqqa cho‘zilib ketgan Hindistongacha bo‘lgan yerlarni o‘z qo‘liga kiritgandi. A.Makedonskiy qo‘lga kiritgan ana shu yerkarning katta qismi – Yunoniston, Makedoniya, Sharqiy O‘rta Yer dengizi mamlakatlari, Eron, O‘rta Osiyo va unga tutash hududlar ellistik davlatlar deb atalgan.

Ellistik davlatlar tarixi esa A.Makedonskiy istilolarining tugashidan boshlanib (eramizdan avvalgi 324 y.) eramizdan avvalgi 30 yillargacha davom etgan. Deyarli 300 yilni o‘z ichiga oladi. Ellinizm deb atalgan davrning tugashi eramizdan avvalgi 30 yillarda, ya’ni Ptolomeylarning so‘ngi mustaqil podsholigi bo‘lgan Misrning Rim tomonidan istilo etilishi bilan yakun topadi.

Bu mavzuni o‘rganishdan avval, shu narsaga e`tibor berish kerakki, ellinizm tushunchasi haqida olimlar o‘rtasida yagona fikr yo‘q. «Ellinizm» degan terminni birinchi bo‘lib nemis tarixchisi I. Droyzen 1833-1834 yillarda o‘zining «Ellinizm tarixi» deb atalgan kitobida qo‘llagan.<sup>12</sup> I.Droyzenning o‘sha kitobida keltirilishicha ellinizm tushunchasi G‘arb ellin madaniyatining Sharq xalqlari o‘rtasida keng yoyilishini tushunilgan. Hozirgi davrda G‘arb olimlari ellinizm haqidagi bunday tor doiradagi tushunchani rad etishmoqda.

G‘arb olimlari bu masalaga alohida e`tibor berishib, yunonlarning sharqqa ta’sir etgan sivilizatsiyasi faqat madaniy bo‘lmay, balki yana iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohada bu munosabat doirasida ham ta’siri kuchli deb baho berdilar. Rus tarixchilaridan V.S.Sergeev, S.I.Kovalev, A.B.Rachnovichlar ham bu masala ustida to‘xtashib, ellinizm qulchilik ellin davlatlari taraqqiyotida yangi progressiv bosqich ekanligini aytganlar.<sup>13</sup>

---

<sup>12</sup> Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. Тошкент: 2004. Б.-164.

<sup>13</sup> Буннер Р.Ю. История древнего мира. – М.: Республика, 1993. С.-286.

Yana bir fikr mavjud. Unga ko‘ra hozirgi davrda ko‘pchilik olimlar tarixchi K.K.Zel’inaning fikrini qo‘llab-quvvatlamoqdalar. Uning fikriga ko‘ra, A.Makedonskiy boshchiligidagi Sharqga borgan yunonlarning sharq xalqlariga, o‘z navbatida sharq xalqlarining yunonlarga o‘zaro ta’siri bo‘lgan. Bu xalqlarning, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarining bir-biriga ta’sir etishi hamda bir-biriga qo‘shilib ketishi davri bo‘ldi. Natijada bu ellin davlatlarida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy “Yangi” munosabatlar bu davlatlar uchun mahalliy aniq o‘ziga xos varianti deb hisoblash mumkin.

O‘rta dengiz sharqidagi ellin davlatlarining eramizdan avvalgi XII—I asr tarixi davrida bu davlatlarning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari bo‘lgan. Ana shunday o‘ziga xos tomonlariga ega bo‘lgan ellin davlatlarida xalq ommasi iqtisodiy majburiyatlarsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat hokimiyati ya’ni podshoga qaram qilingan. Eng ko‘p qaram qilingan guruh - bu dehqon jamoalari bo‘lib, ular podsho (davlat) xazinasiga yer solig‘i yoki jon solig‘i tarzida soliq to‘lab turganlar. Ellistik davrning yana bir muhim xususiyati o‘z ichki mustaqilligini saqlab qolgan shahar davlatlarning mavjudligidir. Ellistik davrda ularni soni kamaymay, aksincha ko‘payib borgan. Bu shahar davlatlarning hududida yashovchi aholining katta qismi qishloq aholisi bo‘lib, ular fuqorolik huquqiga ega bo‘lmaganlar. Ularni shahar mansabdorlari nazorat qilib turgan. Shahar davlatlarning o‘zi esa o‘z navbatida podsho amaldorlari nazoratida bo‘lganlar.

Shaharlarda hunarmandchilik rivojlanib borgan. Hunarmandchilik bilan asosan erkin yollangan kishilar, shuningdek qullar shug‘ullanganlar. Ularni ekspluatatsiya qilish kuchayib borgan. Ellinizm davri uchun, ayniqsa eramizdan avvalgi II—I asrlar uchun xarakterli jihat shuki, bu davrda sinfiy kurash keskinlashib ketadi. Natijada, dehqonlar shahar hunarmandlari ommaviy ravishda o‘z joylarini va kasbkorlarini tashlab keta boshlaganlar. Bularni hammasi dehqonlar, hunarmand va qullarning ommaviy qo‘zg‘olonlariga sabab bo‘lgan. Bu qo‘zg‘olonlar ellistik davlatlarni juda qattiq larzaga soldi.

Ma'lumki, eramizdan avvalgi 323- yili A.Makedonskiy vafot etganidan keyin makedoniyaliklar o'zları bosib olgan hududlarini harbiy kuch yordamida qo'lda saqlab qolish siyosatini tutganlar. Shu maqsadda ular o'zları qo'lga kiritgan barcha hududlarni mayda bo'laklarga bo'lib yubordilar. Bu hududlarda Ptolemeylar sulolasi hukmronlik qilganlar. Makedonskiy lashkarboshilaridan biriga Bobil (Mesopotamiya) va uning sharqidagi davlatlar tegdi. Shundan boshlab salavkiylar sulolasi boshlanadi.

A.Makedonskiyning Ptolemey degan sarkardasiga esa Misr va uning G'arbidagi Kirenaika, Osiyodagi Kipr oroli, janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubidagi va G'arbidagi sohilni katta qismi, u yerdagi Yunon shaharlari, Egey dengizidagi Ptolomeylar davlatiga qarashli bo'lgan bu mulkler o'zlarini eski mahalliy boshqarmasini saqlab qolgan. Lekin bu eskicha mahalliy boshqaruвлar Ptolemeylar tomonidan qo'yilgan noiblar nazorati ostida ishlaganlar.<sup>14</sup>

Ellistik davrda mahalliy xalq misrliklar faqat eng past lavozimlardaғina ishlay olganlar. Yuqori mansablarga misrliklar qo'yilmas edi. Jumladan koma (qishloq) oqsoqoli, koma mirzasi (kotibi) kabi arzimas lavozimlardaғina ishlay olganlar xolos. Nomlar (viloyatlar) toparxiyalarni boshqarish esa yunonlar yoki ellinlashgan chet elliklar qo'lida bo'lgan. Masalan, har bir nom tepasida podsho tomonidan tayinlangan strateg, devonxonasi va arxivini mirza (munshiy) podshoning bosh kotibi shuningdek, moliya, xo'jalik ma'muriyatı tepasida iqtisodchi turgan. Ptolemeylar istilochilik huquqiga asosan butun Misr yerining egalari hisoblanganlar. Misr yerlarining katta qismini dehqonlar podsho moliya ma'muriyatı amaldorlarining nazorati ostida ishlaganlar. Bunday yerlar "podsholik yeri" deb yuritilgan.

U Misr yerlarining qolgan qismi, harbiy qismlarga, diniy kohinlarga, mansabdor shaxslar va shu qabilarga foydalanish uchun berilar edi. Miloddan avvalgi III asrda bunday yerlar kimga tegishli bo'lishiga qarab kleruxlar yeri,

---

<sup>14</sup> Левик П. Эллинистический мир. М.: Издательство Восточной литературы, 1990. С.-96.

ibodatxona yeri, in`om qilingan yer deb atalardi. Miloddan avvalgi II asrga kelib bunday yerlar umumiylar bilan “Kechib berilgan yer” deb yuritiladigan bo‘ldi. Misr aholisining ko‘pchiligi Misr dehqonlari (Laon odamlar) va podsho dehqonlaridan iborat bo‘lgan. Shuni e`tiborga olish kerakki, podsho dehqonlari orasida podsholik yerini ijaraga olgan boylar ham bor edi. Lekin ular ozchilikni tashkil etib, asosan mehnat qiladigan dehqonlar (laoylar) bo‘lgan. Asosan, bu dehqonlarni barchasi qishloqlarda yashaganlar. Qishloqda dehqonlar eskicha jamoa tashkilotiga birlashgan bo‘lib, hukmron ptolemeylar eski jamoa tartibini ataylab saqlab qolganlar. Chunki bu tartib (jamoa) bilan soliq undirish, dehqonlarni turli xil jamoat ishlarida ishlatishni osonlashtirar edi.

Dehqonlar yerdan foydalanish huquqini qo‘lga kiritish uchun podsho moliya ma’muriyati bilan ma’lum muddatga shartnoma tuzishga majbur edilar. Misr dehqonlari bug‘doy, zig‘ir va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini ekkanlar. Dehqonchilik qilish uchun urug‘larni kuzda qaytarib berish sharti bilan qarzga davlat omborlaridan berilar edi. Ekinlarni ekishdan tortib to uni yig‘ib-terib olinguncha bo‘ladigan barcha ishlar podshoning moliya xizmatchilari va politsiyaning qattiq nazorati ostida o‘tgan. Hosil yetilgach podsho dehqonlari uni eng yaqin podsho xirmoniga olib borishlari, nazorat ostida yanchishlari, shu yerni o‘zida ko‘pdan-ko‘p natura soliqlarni to‘lashlari kerak bo‘lgan, To‘lanadigan soliqlarni eng kattasi yer solig‘i bo‘lgan. Ayni paytda dehqonlar qarz olgan urug‘lik qarzini qaytarishlari lozim bo‘lgan. Hamma to‘lovlar to‘lab bo‘lingach, hosilni qolgan arzimas qismi dehqonlarga qolar edi. Dehqonga tekkan hosilni bu arzimas qismi dehqonni yarim och-yarim to‘q yashashiga zo‘rg‘a yetar edi. Bunday hol dehqonlarni noroziligiga sabab bo‘lar edi. Podsholik yerlaridan to‘plangan daromadlar ko‘plab chet ellarga sotilgan. Chunki Misr g‘alla yetkazib beradigan eng boy o‘lka bo‘lib, ko‘pchilik qo‘shni davlatlarni g‘alla bilan muntazam ta’minlab turgan.

G‘alla Misr davlati, Ptolemeylar podsholigining asosiy daromadi bo‘lgan. Podsholik yeridan tashqari, harbiy xizmatchilarni lavozim va xizmatlariga qarab yer

bilan ta'minlanar edi. Harbiy xizmatchilarga berilgan bu yerlar kleruxlar deb atalib, ular soliqlardan ozod etilganlar. Kleruxlarni yerlarida dehqonlar va qullar ishlaganlar.

Misrda yerlarni katta qismi ibodatxona (kohinlar) qo'lida to'plangan. Ibodatxona yerlarida podsho dehqonlari va qullar mehnat qilganlar. Bu yerlar ham katta imtiyozlarga ega edi. Lekin bu yerlardan keladigan daromadni arzimagan qismigina podsho xazinasiga tushar edi. Misr yerlarida dehqonchilikdan tashqari, yer osti konlarini ishslash, hunarmandchilik ishlari, ichki va tashqi savdo sohalarida ham katta daromadlar olar edilar. Bu sohalardan keladigan daromadlar ham ptolemeylar xazinasiga tushar edi. Ptolemeylar soliqlar, boylik keltiradigan monopoliya (yer osti konlari, korxonalar)ni "Kim oshdi" qilib, ma'lum muddatlarga ijaraga berardilar. To'da-to'da boylar bu huquqni sotib olib, podsho xazinasiga eng ko'p soliq yig'ib berar yoki monopol to'varlarni ishlab chiqarish va sotishdan kelgan eng ko'p foydani topshirar edilar. O'sha vaqtdagi ptolemeylar hukmronligi o'stida bo'lgan Misrda sotib olingan qullar mehnatiga zarurat yo'q edi. Chunki u yerdagi (qullar) dehqonlar, hunarmandlarni quzdorlik uslubida ekspluatatsiya qilinar edi.

Ptolemeylarga buysungan Finikiya, Suriya, Pergam, Yunoniston kabilarda esa sotib olingan qullar mehnatidan keng foydalanganlar. Misrda sotib olingan qullar mehnatidan nisbatan kam foydalanish bu Misrning o'ziga xos bo'lgan mahalliy hususiyati edi. Ellistik davlatlarga Ptolemeylarga qarashli hududlardan tashqari yana salavkiylar podsholigi hukmronlik qilgan hududlar ham qaraydi. Miloddan avvalgi III asrda ellistik dunyo hududni katta qismini Salavkiylar podsholigi nazorat qilgan. Salavkiylar podsholigi Ptolemeylar davlatiga nisbatan bir muncha keyinroq tashkil topgan. Salavkiylar podsholigi O'rta yer dengizini O'rta Sharq mamlakatlari bilan bog'lovchi karvon va suv yo'llarida hukmronlik qilardilar. Shuningdek, Markaziy Osiyo va Hindiston orqali hatto Xitoy bilan savdo-sotiq qilardilar. Bu savdo-sotiqda Salavkiylarning Ptolemeylardan iborat raqobatchilari

bo‘lib, ular janubiy Suriyadagi va Qizil dengizdagi savdo yo‘llarini o‘z qo‘llarida saqlar edilar.<sup>15</sup>

Salavkiylar podsholigida yerlar tub podsho yerlaridan iborat bo‘lib, bu yerlarni qaram jamoa dehqonlar ishlar edilar. Ularni ham laoy deb atardilar. Ular podsho moliya amaldorlarini nazorati ostida ushlab, to‘plangan hosilni o‘ndan birini podsho xazinasiga to‘lar edilar. Ularni g‘aznaga to‘laydigan to‘llovlari ptolemeylarnikidan kamroq edi. Sababi, salavkiylar o‘zlarining g‘oyat katta hududlarini ptolemeylar kabi o‘zlashtira olmagan edilar. Shuning uchun ular asosiy aholi ommasi bilan ko‘p darajada hisoblashishlari lozim edi.

Ptolemeylardagiga o‘xshab, salavkiylarda ham turli ko‘rinishdagi kechib berilgan yerlar bo‘lgan. Bu yerlarning egalari ptolemeylarga qaraganda o‘z yerlaridan mustaqilroq foydalanganlar. Salavkiylardagi ibodatxonalardagi, mu`tabar kohinlarga qarashli hududlar ko‘pincha o‘ziga mustaqil bo‘lgan. Yana o‘ziga mustaqil bo‘lgan qabilalar, davlat birlashmalari salavkiylarga rasman buysunsalarda, o‘z oldilariga mustaqil edilar. Salavkiylar davlati esa ularning madadiga suyanar edilar. Umuman, salavkiylar hududini egasi bo‘lgan podsho Orontdagи Antioxiyada turgan ptolemeylar kabi salavkiylarda ham podsho va malika ilohiyashtirilgan. Podshoning yordamchisi «ishlar mudiri» unvoniga ega bo‘lib, mamlakatni boshqarishda katta rol o‘ynagan. Salavkiylar dastlabki vaqtarda Mesopotamiyaning sharq tomoni – Eron va O‘rta Osiyoda keng hududlarga egalik qilar edilar. Salavkiylar podsholigi qabila va xalqlarning quramasi bo‘lib, o‘ziga nom qilib oladigan biron asosiy elati yo‘q edi. Shuning uchun mamlakatni idora qiladigan podsho sulolasi nomi bilan atalgan.

Qadimgi hind, ahmoniy va yunon manbalarida Baqtriya viloyatiga alohida ahamiyat beriladi. Baqtriyaga Aleksandrning ham munosabati boshqacha bo‘lgan. Shoh Baqtriya amaldorlari va zodagonlari bilan yaqinlashishga urinadi, mintqa hokimlaridan birining qizi-Raxshonaga uylanishining sababi ham faqat bir

---

<sup>15</sup> Реддер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги Дунё тарихи. Тошкенм: Ўқитувчи, 1974. Б.-273.

ko‘rishdagi muhabbat emas, balki uning siyosiy motivlari ham bo‘lsa kerak. Aleksandr Baqtriya shaharlarida grek va makedon lashkarboshilaridan ko‘proq hukmdor va hokimlarni qoldirishga urinadi. Albatta bunday munosabatning tarixiy sabablari ham bor edi. Mintqa ipak yuli, G‘arb va Sharq savdo yo‘lining muhim qismida joylashganligi tufayli boshqa viloyatlarga nisbatan iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan avvalroq rivoj topgan. Bu viloyatni Ioniya va Markaziy Gretsya bilan aloqasi ham avvalroq boshlangan (Amudaryo xazinasi deb ataluvchn san`at buyumlari, ko‘plab topilgan pullar buning isboti). Ana shunday zamin bo‘lgani uchun ham ellinizm davrida Baqtriyada ellinlashtirish jarayoni avval va tez o‘tdi (Parfiya va Xorazmda bu jarayon ancha kechikdi). Baqtriyaning grek podshohlari Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Antimax kabilar viloyatni Gretsyaning bir qismi deb qaraganlar. Agar Parfiya, So‘g‘diyona va Xorazm uchun ellistik madaniyat namunalari eramizdan avval III – II asrlarda odat tusiga kirgan deb qabul qilinsa, Baqtriyada madaniyatning tadrijiy taraqqiyoti mahsuli sifatida qaralgan. Shuning uchun ham ellistik san’at namunalari ayniqsa Baqtriyada yetuk tus olgan.

Antik adiblar “Ming shaharli Baqtriya” deydilar. Haqiqatan bu vodiya (Amudaryoning ikki sohili, O‘zbekistonnnng janubi va Afg‘onistonning shimoli) arxeologlar ko‘plab katta va kichik shaharlar vayronasini topganlar.<sup>16</sup>

Agar Aleksandrdan avval greklar Baqtriya va Hindistonnn juda uzoq o‘lkalar, dunyoning chekkasi deb tasavvur etsalar, Makedoniya shohi yurishlari bu tasavvurni puchga chiqardi, yurishlar jarayonida minglab lashkarlar bu yerlarda o‘troqlashnb qoladilar, ellinizm davrida esa ko‘plari ko‘chib ham keladilar. Eramizdan avval III asr o‘rtalarida Baqtriya Diodot rahbarligida Selevklar davlatidan ajralib chiqadi va o‘zini mustaqil davlat deb e`lon qiladi. Natijada Baqtriyada quldorlikka asoslangan greklar hukmronligidagi davlat tashkil topdi. Baqtriya hukmdori, ayniqsa Yevtidem va Yevkratidlar mustamlakalashtirish siyosatini olib boradilar hatto janubiy Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonni bosib oladilar, Baqtriyaning grek shohlari grek

---

<sup>16</sup> Левик П. Эллинистический мир. – М.: Издательство Восточной литературы, 1990. С.-94.

polislari davlat-shahar usulida ko‘plab shaharlar quradilar, binolar qurilishida esa grek va sharq elementlari sintezlantiriladi.

Baqtriyada greklar tomonidan qurilgan shaharlarning eng yirigi hozirgacha ma’lum bo‘lgan Afg‘onistonning shimolida joylashgan Aleksandriya Oksiana, ya’ni Amu Aleksandriyasi (hozirgi nomi Oyxonim)dir.<sup>17</sup> U 400 hektar yerni ishg‘ol etgan. Unda teatr, gimnasiy (savodi chiqqan bolalar ilmiy va jismoniy kamolot topganlar), kutubxona, xazina, grek xudolariga ibodatxonalar, davlat idoralari, qasrlar, saroylar, haykallar bilan bezatilgan fontan, shaxsiy hovlilar mavjud ekanligini frantsuz arxeologlari aniqlashdi. Shahar eramizdan avval IV asrda barpo etilib, eramizdan avvalgi 147-yillar atrofida ko‘chmanchilar tajovuzi ostida vayron etilgan. Oyxonimni tasvirlagan frantsuz olimlari D. Shyumberje va Pol Bernarlar grek yozuvidagi ikki papirus parchalarini topganlar, ularning birida falsafiy mazmundagi dialog, ikkinchisida she’r bo‘lgan. Afsuski, namgarlikda kutubxonaning yer sahniga yozuv iz bo‘lib tushgan yerda ham pergamentda ham saqlangan yozuv izini o‘qib bo‘lмаган. Arxeologlar topilgan idishlarda grekcha yozuvlar (idishdagi narsalar nomi, og‘irligi va h. k.) bo‘lganini aniqlaganlar.

Baqtriyada Oyxonimdan boshqa Kofir qal`a, Yemishtepa, Dilberjin, Saksonoxur, Taxti Sangin, Yovon, Tomoshatepa, Xalchayon, Yerqo‘rg‘on, Qanqa kabi ellistik tipdagи shaharlar mavjud bo‘lganligini arxeologlar aniqlashdi. To‘g‘ri, bular Aleksandriya Oksiana darajasiga ko‘tarila olmaganlar. Lekin bu shaharlarning ochilishi grek shohlari Baqtriyada hukmronlik qilgan davrlarda ellistik madaniyat, san`at butun viloyat bo‘ylab keng tarqalganligini isbotladi. Shu o‘rinda agar ichki iqtisodiy-ijtimoiy sharoit tashqaridan bo‘lgan ta’sirni qabul qilib olish va rivojlantirish darajasida bo‘lmasa har qanday kuchli ta’sir ham yerli madaniyatga singmasligi va iz qoldirolmasligini yana bir bor eslab o‘tishni lozim ko‘rdik. Haqiqatan, mintaqada yuzaga kelgan tarixiy sharoit ellistik madaniyatni

---

<sup>17</sup> Гафуров Б. Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. М.: Высшая школа, 1980. С.-87.

o‘zlashtirish va o‘zi ham uning ajoyib yuksak namunalarini yaratishga qodirliginn ta’minladi.

O‘rta Osiyoda ellinizm davrida Olimp xudolari bilan yerli ma’buda obrazlari va vazifalari birlashtiriladi, Axura-Mazda-Zevs, Mitra-Zevs, Gelios, Appolon, Nika-Tyuxe-Xvaninda, Anaxita-Afina, Poseydon-Vaxsho va h. k. Qizig‘i shundaki ko‘p o‘rinlarda grek xudolari yerli kiyimda tasvirlanganlar, masalan Mitraning boshida nur sochib turgan Zevs, Gelios Heraklga ko‘chirilgan yoki aksincha yerli ma’buda Xvaninda Gretsiyada g‘alaba ma’budasi Nika (Tyuxe) atributlari – gul-dasta va qanot bilan, Amudaryo suvlari xudosi Vyaxsho esa Poseydonga xos uch tishlik asbob bilan tasvirlanadi.<sup>18</sup> Bulardan tashqari mintaqada Dioskurlar, Dionis e`tiqodlari ham keng tarqalgan (Dilberjinda Diokurlar ibodatxonasi, Bandixonda Herakl haykalchalarini tayyorlovchi qolip, Oyxonimda Zevsning katta haykalining parchalangan bo‘laklari, yana 12 Olimp xudolarining tasviri tushirilgan gips qolip, Dionis haykalchalari Dilberjinda topilgan. Grek madaniyati bilan tanishmasdan avval O‘rta Osiyo xalqlarida xudolari inson shaklida tasvirlash bo‘lmagan, eramizdan avval V asrda eronshoxlar tomonidan mintaqaga bosib olingach xalqlar Eron orqali Ioniya va Gretsya madaniyati bilan tanishadilar, shundan boshlab yerli xudolarni odam shaklidagi haykal va haykalchalarda tasvirlaydilar. Xudolar tasviridan tashqari binolarni quyma tasvirlar bilan bezash, kolonnalar, binolarni planlashtirish ham ellada san`ati, arxitekturasi ta’siri ostida bo‘lgan, Xalchayonda topilgan\_haykallar, o‘g‘il bolalar tutib turgan gul shodalari tasviri bunga yorqin misol bo‘la oladi.<sup>19</sup>

Aleksandr yurishlari natijasida tashkil etilgan imperiyada grek tili va yozuvi rasmiy davlat tili, yozuvi sifatida qabul qilingan edi.

Sharq mamlakatlarida milliy adabiyot ham o‘z navbatida rivoj etgan, ayniqsa parfiya tilidagi adabiyot boy bo‘lgan. Nemis olimi F. Altxaym “Aleksandr va Osiyo” asarida arab manbalariga suyangan holda Parfiya shohlari davrida yaratilgan

<sup>18</sup> Кобылина М.М. (отв. ред.). История и культура античного мира. – М.: Наука, 1977. – С. 135.

<sup>19</sup> Ранович А.Б. Элинизм и его историческая роль. – М.: Наука, 1999. – С.123.

yetmishga yaqin badiiy asarlar bo‘lgani haqida xabar beradi.<sup>20</sup> Albatta bularga ham, grek adabiyotining ta’siri o‘tishi tabiiy hol edi. Aleksandr o‘zi bilan shoirlar, tarixchilar, aktyorlar olib yurgani, joylarda she`rxonliklar, teatr o‘yinlari uysushtirgani va Homer asarlarini olib yurib, doim o‘qigani va majlislarda ko‘pchilik uchun o‘qitgani haqida antik mualliflardan ma’lumotlar borligini yuqorida aytgan edik. Plutarx va Elian esa Homer asarlarini Erondan Hindistongacha bo‘lgan masofada yashagan xalqlar o‘qiganlar deydi. Plutarxning xabariga ko‘ra Baqtriya va Parfiya shohlarining saroylarida Sofokl va Yevripid tragediyalari o‘ynalgan fikrimizcha, bu ma’lumot haqiqatdan uzoq emas, chunki grek teatri bo‘lgandan keyin albatta, unda grek tragediya va komediyalari o‘ynalgan. Oyxonimda esa “Iliada” mazmuniga aloqador tasvir tushirilgan idish topilgan. Albatta bularning hammasi adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy, ammo ularning namunalari saqlanib qolmagan.

---

<sup>20</sup> Абдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. –Тошкент: Ўрта ва Олий мактаб давлат нацириёти, 1964. –Б. 276.

## XULOSA

Muttasil uch yil davom etgan shiddatli jang-u jadallardan so‘ng Aleksandr Baqtriya, Sug‘diyonaning faqat bir qisminigina itoat ettirib, bu hududlarga o‘z ishonchli odamlarini, o‘ziga sodiq sug‘dlik Oropiyni Sug‘diyona hokimi etib tayinlab, o‘zi mil. av. 327 yilda Hindiston tomon qo‘shin tortadi. Yunon-Makedon qo‘shinlari O‘rta Osiyo erlarida shu qadar holdan toyib, o‘zining jangovorlik qobiliyatini yo‘qotdiki, buning oqibatida ular shimoliy Hind erlariga arang kirib bordilar. Bu holatni tan olgan Iskandar tez orada Hindistondagi urush mavsumini tugatib, ortga, ikki daryo oralig‘idagi Bobil shahriga qaytib ketishga buyruq beradi. Antik dunyo olimlarining yakdil ta‘kidlashicha, Yunonlar podshosining bu buyrug‘i ruhan cho‘kkan uning butun qo‘shinida katta qoniqish bilan qarshi olingan ekan.

Shunday qilib, butun er yuzini egallab, dunyo hukmdori bo‘lishga da‘vo qilgan Iskandarning sharqiy yurishlari oxir - oqibatda ko‘zlangan yuksak maqsadi natijalarsiz tugadi. Uning o‘zi mil. av. 323 yilda Bobilda hayotdan ko‘z yumadi. Ayniqsa uning ko‘p sonli lashkarlarining Vatanimiz sarhadlarida mislsiz xalq qarshiligiga duch kelib, son-sanoqsiz qurbanlar berishi pirovardida uning jahongirlik da‘vosini puchga chiqardi.

O‘zgalar yurtini zo‘rlik bilan egallah evaziga qudratli sultanat qurish, boshqalarga o‘z irodasini majburlash yoxud zulm-asoratni kuchaytirish pirovard natijada qanday xunuk oqibatlarga olib kelishini Aleksandr timsoli yaqqol isbot etadi. Tarixning bu achchiq sabog‘ini hech mahal unutmaslik kerak bo‘ladi. Aleksandrning so‘ngi taqdiriga kelsak, u miloddan avvalgi 327- yili Hindiston ustiga qo‘shin tortdi va mamlakatni shimoli-g‘arbiy qismini bosib oldi. U Yangi yurishlarga tayyorgarlik ko‘rish asnosida bezgak kasaliga chalinadi va miloddan avvalgi 323-yilning iyunida 33 yoshida vafot etdi.

Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishlari vaqtidan boshlab, O‘rtayer dengizining katta qismi Misr, Kichik va Old Osiyo, uning atrofidagi hududlar, O‘rta Osiyoning janubiy va markaziy Osiyoning bir qismi, Hind daryosining quyi oqimigacha ularning tarixiy taraqqiyotini yangi Ellin davri boshlandi. “Ellin”

tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I.Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Iskandarning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo'lladi va uni mazmunini madaniy soha bilan chekladi.

XX asrning 50-yillar boshlaridan ko'pchilik tarixchilar Elliniz davrini siyosiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy sohalarda Ellin (g'arb) va mahalliy (sharq) hayotining sintezi deb qabul qildilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlarini yunon-makedon istilolari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi.

Ellin davrida Baqtriya va Sug'diyonada adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik rivojlanib borgan. Bu davr san`atining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, yunon madaniyati va mahalliy san`at an`analarining uyg'unlashuvi, bir-birini o'zaro boyitish natijasida juda ajoyib an`analarga ega bo'lagan ellin san`atining vujudga kelganligi bo'lган.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **Siyosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. T.: «O‘zbekiston» 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.

3. Mirzyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. T.: «O‘zbekiston» 2016.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Axmedov.B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T.: O‘qituvchi. 1991.
2. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. – T.: Iqtisod-moliya. 2006.
3. Avdiev V.I. Qadimgi SHarq tarixi. –Toshkent:O‘rta va Oliy maktab davlat nashriyoti, 1964.
4. Levik P. Elinisticheskiy mir. – M.: Izdatelstvo Vostochnoy literature, 1990.
5. Gafurov B. G., TSibukidis D.I. Aleksandr Makedonskiy i Vostok. M.: Vqsshaya shkola, 1980.
6. Vipper R.Yu. Iстория drevnego mira. – M.: Respublika, 1993.
7. Rudenko S. I. Drevneyshie v mire xudojestvenne kovre i tkani. M.: 1968.
8. Reder D.G., CHerkasova Ye.A. Qadimgi Dunyo tarixi. Toshkent: Ўqituvchi, 1974.
9. Ranovich A.B. Elinizm i yego istoricheskaya rol. – M.: Nauka, 1999.

10. Kobqlina M.M. (otv. red.). Istorya i kultura antichnogo mira. – M.: Nauka, 1977.
11. Sulaymonova F. SHarq va G‘arb. – T., «Fan» nashriyoti. 1992 yil.
12. Shamsutdinov.R., Karimov.Sh. Vatan tarixi. T.: 2010.

**Elektron resurslar:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. www.google.com.
4. [www.turklib.uz](http://www.turklib.uz).
5. [www.mirknig.ru](http://www.mirknig.ru).

## ILOVALAR.



